

8-sinf Ona tili fanidan I chorak

1-BSB. Insho (25 ball)

Mavzular:

1. Kitobxonlik — buyuk kelajak kafolati.
2. Yurt qayg‘usida yashash — ulug‘ fazilat.
3. Qarisi bor uyning parisi bor.
4. Hayvonlarga shafqatsizlarcha munosabatda bo‘lmang!
5. Hayotdagi eng buyuk maqsad.
6. Mening yo‘lchi yulduzim.
7. Tabiat muvozanati zanjirida har bir jonzotning o‘z o‘rni.bor
8. Zamonamiz qahramonlari.
9. So‘z boshi – assalom, ish boshi - intizom.
10. Internet olamidagi mulohazasiz odamlar.

Insho yozish uchun ko‘rsatmalar:

- *o‘z fikrini imlo qoidalariga rioya qilgan holda yozma shaklda bayon qila olish;*
- *xalq maqollari, hikmatli so‘zlar ma’nosini tushungan holda o‘z nutqida qo‘llash, matn tuzishda so‘zlardan o‘rinli foydalana olish;*
- *Husnixat, ozodalikka e’tibor bergen holda kechinmalarni bayon qilish.*

Inshoni baholash mezonlari (25 ball)		1 ta	2 ta	3 – 4 ta	5 – 7
1. Imlo xatolari	5 ball	5 ball	4 ball	3 ball	1 ball
2. Uslubiy xatolar	3 ball	3 ball	2 ball	1 ball	0 ball
3. Tinish belgilari	2 ball	2 ball	1 ball	0 ball	
4. Mavzuning dalillar asosida (asardan parcha) yoritilishi	5 ball				
Asardan olingan parchalar to‘g‘ri tahlil qilinsa, o‘z qarashlari mos dalillar bilan asoslab berilsa, epigraf inshoga mos tarzda tanlangan bo‘lsa va tuzilgan reja mavzuga to‘la mos bo‘lsa	5 – 4 ball				

Asardan olingan parchalar qisman tahlil qilinsa, o‘z qarashlariga mos dalillar bilan asoslab berilsa, epigraf inshoga mos tarzda tanlangan bo‘lsa va tuzilgan reja mavzuga qisman mos kelsa	3 – 2 ball				
Asardan olingan parchalar keltirilgan, biroq o‘z qarashlari mos dalillar bilan asoslab berilmasa, epigraf inshoga mos emas va tuzilgan reja mavzuga qisman mos kelsa	1 ball				
5. Badiyliги (so‘з qo‘llash mahorati, she’riy parchalar, maqollar, aforizmlarni qo‘llash)	5 ball				
Iboralarni, sifatlashlarni, ko‘chma ma’noli, sinonim, antonim so‘zlarni o‘rinli qo‘llagan bo‘lsa	5 ball				
Sinonim so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llagan bo‘lsa	4 – 3 ball				
Fikr bo‘yoqsiz, shunchaki ma’lumot sifatida qo‘llangan bo‘lsa	2 – 1 ball				
6. Ozodalik va husnixat	2 ball				
Husnixat aniq va ravon, tushunarli bo‘lsa	2 ball				
Husnixat biroz noaniq, harflar qiyshaygan bo‘lsa, ravon o‘qish biroz qiyin bo‘lsa	1 ball				
7. Mustaqil fikr bildira olish xususiyati	3 ball				
Har ma’lumot izohlanib, xulosa, qiyosiy tahlil qilinib, o‘z munosabati ifodalangan bo‘lsa,	3 ball				
Mavzu bo‘yicha ma’lumotlar darslik asosida ifodalanib, o‘quvchining o‘z dunyoqarashi ifodalanmagan bo‘lsa	2 – 1 ball				
Qolgan holatlar	0 ball				
JAMI:	25 ball				